



PAPER

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON DAVLATLARI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK VA MADANIY ALOQALAR TARIXI (1991-2026)

Xayrullayeva Sitora^{1,*}

¹Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

* xayrullayeva@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi diplomatik hamda madaniy aloqalarning 2019–2026-yillardagi rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Ikki davlat o‘rtasidagi strategik hamkorlikning mustahkamlanishi, oliy darajadagi uchrashuvlar, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarning kengayishi yoritiladi. Shuningdek, ta‘lim, san‘at va turizm sohalaridagi hamkorlikning o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida mazkur davrda ikki tomonlama munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarilgani asoslab beriladi.

Key words: O‘zbekiston, Qozog‘iston, diplomatik aloqalar, madaniy hamkorlik, Markaziy Osiyo, strategik sheriklik, integratsiya, turizm, ta‘lim, madaniyat

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va statistik ma‘lumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi rasmiy hujjatlar, davlat rahbarlari uchrashuvlari natijalari, ommaviy axborot vositalari hamda ilmiy adabiyotlar asosiy manba sifatida o‘rganildi. Shuningdek, madaniy va diplomatik jarayonlarni tahlil qilishda kompleks yondashuv qo‘llanilib, ikki davlat o‘rtasidagi

hamkorlik dinamikasi izchil ravishda yoritildi.

KIRISH QISMI

Bugungi globallashtirish sharoitida davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Markaziy Osiyoda joylashgan O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi munosabatlar mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 2019–2026-yillar

Compiled on: April 15, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

davomida ikki davlat o'rtasidagi diplomatik va madaniy aloqalar sezilarli darajada faollashdi.

Mazkur davrda oliy darajadagi rasmiy tashriflar, strategik sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan kelishuvlar, savdo-iqtisodiy hamkorlikning kengayishi kuzatildi. Shu bilan birga, madaniy-gumanitar sohada ham hamkorlik yangi bosqichga chiqib, qo'shma madaniy tadbirlar, ta'lim almashinuvi va turizm rivojlandi.

Ushbu maqolaning maqsadi – 2019–2026-yillar davomida O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi diplomatik va madaniy aloqalarning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va ularning mintaqaviy hamkorlikdagi o'rnini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Mahalliy tadqiqotchilardan Sodiq Safoyev va Abdulaziz Komilov asarlarida O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, jumladan Qozog'iston bilan hamkorlik alohida o'rin egallashi ta'kidlanadi. Ushbu ishlarda ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalarning mustahkamlanishi va o'zaro ishonch muhitining shakllanishi yoritilgan. Madaniy-gumanitar hamkorlik masalalari UNESCO doirasidagi dasturlar orqali ham tahlil qilinadi. Ushbu tashkilot materiallarida ikki davlat o'rtasida madaniy merosni asrash, ta'lim almashinuvi va turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar qayd etilgan.

Bundan tashqari, rasmiy manbalar, jumladan Ministry of Foreign Affairs of Uzbekistan va Ministry of Foreign Affairs of Kazakhstan tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar ikki tomonlama aloqalarning zamonaviy holatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

[O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi diplomatik hamda madaniy aloqalar masalasi Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasi doirasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan boshlangan ochiq tashqi siyosat natijasida qo'shni davlatlar bilan munosabatlarning faollashuvi ilmiy tadqiqotlarda alohida e'tirof etiladi.

Asosiy qism

Ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasi tarixan fan, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatning muhim o'choqlaridan biri bo'lib kelgan. Ushbu hududda yashab ijod qilgan olim va mutafakkirlarning ilmiy hamda madaniy merosi nafaqat alohida bir xalq, balki butun insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Shu bois, bu mintaqaga mansub olimlarni aniq bir davlat doirasida chegaralash mushkul hisoblanadi.

Yaqin tarixdagi Qozog'iston ilm-fani va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan shaxslar qatorida Abay Qo'nonboyev, Kanysh Satpayev, Muxtor Avezov, Sobir Muqonov hamda Dinxmuhammad Kunayev kabi atoqli namoyandalarni alohida ta'kidlash mumkin. Ularning ilmiy va ijodiy faoliyati Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi madaniy yaqinlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Adabiyot sohasida o'zbek va qozoq xalqlari o'rtasidagi hamkorlikni yorqin ifodalagan shaxslardan biri Nosir Fozilov hisoblanadi. U O'zbekistonda yashab ijod qilgan bo'lib, qozoq adabiyotining yirik vakillari — Abay Qo'nonboyev, Muxtor Avezov, Sobir Muqonov, G'abit Musrepov, G'abiden Mustafin, Abdulla Tojiboyev hamda Abdijalil Nurpeisov kabi adiblar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning xizmatlari yuqori baholanib, 1986-yilda Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining Bayimbet Maylin nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Shuningdek, u 1990-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" unvonini olgan, 1994-yilda "Tinchlik va ma'naviy hamjihatlik uchun" xalqaro mukofoti hamda 1999-yilda "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlangan.

Ikki qardosh xalq o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasida ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 13-martda qabul qilingan qarorga muvofiq, Abay Qo'nonboyev ijodiy merosini o'rganish va targ'ib etish ishlari keng yo'lga qo'yildi. O'z navbatida, Qozog'istonda Alisher Navoiy tavalludining 577-yilligi keng nishonlandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ikki xalq o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash yo'lida xizmat qilgan shaxslar davlat tomonidan munosib rag'batlantirilmoqda. Xususan, 1991–2019-yillar davomida qozoq millatiga mansub 630 nafardan ortiq O'zbekiston fuqarolari turli davlat mukofotlari

bilan taqdirlangan. Ushbu ko'rsatkich so'nggi yillarda yanada ortib bormoqda. Masalan, 2016-yilda 33 nafar qozoq millatiga mansub O'zbekiston fuqarolari yuksak mukofotlarga sazovor bo'lgan. Bundan tashqari, 1991-yildan buyon 23 nafar Qozog'iston fuqarolari ham O'zbekiston davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi madaniy aloqalar huquqiy asosga ega bo'lib, ular 1994-yil 10-yanvarda imzolangan "Madaniyat, sog'liqni saqlash, ilm-fan, ta'lim, turizm va sport sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risida"gi hukumatlararo bitim asosida rivojlanib kelmoqda. Mazkur hujjat ikki davlat o'rtasida madaniy-gumanitar hamkorlikni izchil rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Bugungi kunda ushbu hamkorlik ta'lim sohasida ham faol davom etmoqda. Xususan, O'zbekiston va Qozog'iston oliy ta'lim muassasalari o'rtasida talabalar almashinuvi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish hamda ilmiy tajriba almashish yo'lga qo'yilgan. Hozirgi kunda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari Qozog'istonning 50 dan ortiq universitetlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida ilm-fan va ta'lim sohasidagi hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda. Xususan, ikki davlat Fanlar akademiyalari o'rtasida tizimli aloqalar yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu doirada qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy tajriba almashish hamda kelgusida universitetlar konsorsiumini tashkil etish bo'yicha muhim kelishuvlarga erishilgan.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik ham sezilarli natijalar bermoqda. Ayni paytda O'zbekistondagi 400 ga yaqin maktabda mashg'ulotlar qozoq tilida olib boriladi, shundan 162 tasida ta'lim to'liq qozoq tilida tashkil etilgan. Oliy ta'lim tizimida esa Toshkent davlat pedagogika universiteti, Guliston davlat universiteti, shuningdek, Nukus, Jizzax va Navoiy davlat universitetlarida qozoq tili va adabiyoti yo'nalishlari faoliyat yuritmoqda. Ilmiy va ijodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida ikki davlat ziyolilari o'rtasida forumlar tashkil etish tashabbuslari ilgari surilmoqda. Bunday tashabbuslar kelgusida hamkorlikni yangi sifat bosqichiga olib chiqishi kutilmoqda.

Madaniy sohada ham ikki tomonlama aloqalar faol rivojlanmoqda. Qozog'iston san'at va madaniyat vakillari O'zbekistonda an'anaviy tarzda o'tkaziladigan Sharq taronalari xalqaro musiqa festivalida muntazam ishtirok etib kelmoqda. Shuningdek, 2018-yilning "Qozog'istonda O'zbekiston yili" deb e'lon qilinishi doirasida qator madaniy tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, o'zbekistonlik san'at ustalari tomonidan bir necha konsert dasturlari, teatr jamoalarining gastrol chiqishlari, tasviriy va amaliy san'at ko'rgazmalari, "O'zbek kinosi kunlari" va "O'zbek madaniyati kunlari" kabi tadbirlar tashkil etildi.

2019-yil 15-aprel kuni Toshkent shahridagi "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida O'zbekistonda "Qozog'iston yili"ning rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirda Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, qardosh xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarining ahamiyatini alohida ta'kidladi. Ushbu yil doirasida mamlakatimizda qozog'istonlik san'at va madaniyat namoyondalari ishtirokida 80 dan ortiq turli tadbirlar o'tkazildi. Ikki davlat o'rtasidagi ma'naviy yaqinlikni mustahkamlash yo'lida muhim tashabbuslardan biri sifatida Qosim-Jomart Toqayev tomonidan Nur-Sulton shahrida Alisher Navoiy haykalini o'rnatish taklifi ilgari surildi. Mazkur tashabbus ikki xalq o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlikning ramzi sifatida e'tirof etiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 800 mingdan ortiq qozoq millatiga mansub aholi istiqomat qiladi. Bu esa qozoq diasporasining Qozog'iston tashqarisidagi eng yirik qismini tashkil etadi. Shu munosabat bilan milliy-madaniy markazlarning faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, 1992-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Qozoq milliy madaniy markazi qozoq millatiga mansub aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, til va an'analarni saqlash hamda rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu markazning hududiy bo'linmalari Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Buxoro, Jizzax, Navoiy, Xorazm, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida faoliyat yuritmoqda. Markaz tashabbusi bilan etnografik muzeylar tashkil etilgan bo'lib, ular milliy merosni asrashga xizmat qilmoqda.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar doirasida har yili "Aytis" oqinlar musobaqasi, "Altibaqan",

“Tusaukeser” kabi milliy an’anaviy bayramlar o‘tkaziladi. Shuningdek, mamlakatimizda qozoq tilidagi “Nurli jol” gazetasi nashr etib kelinmoqda.

Ikki davlat o‘rtasidagi madaniy aloqalar doirasida turli xalqaro festival va tadbirlar ham o‘tkazilmoqda. Jumladan, Olmaota va Turkiston shaharlarida o‘tkazilgan folklor ekspeditsiyalari, teatr jamoalarining gastrollari, milliy taomlar festivallari hamda Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Atlas bayrami” xalqaro to‘qimachilik festivali shular jumlasidandir. Bundan tashqari, “Navro‘z sadolari” xalqaro festivali, “Maqom san’ati” anjumani kabi nufuzli tadbirlarda ham Qozog‘iston vakillari muntazam ishtirok etib kelmoqda. Umuman olganda, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi ilmiy, ta’limiy va madaniy aloqalar izchil rivojlanib, ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 2019–2026–yillar davomida O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi diplomatik va madaniy aloqalar sezilarli darajada rivojlandi va yangi bosqichga ko‘tarildi. Ikki davlat o‘rtasida strategik sheriklikning mustahkamlanishi, oliy darajadagi uchrashuvlarning muntazamligi hamda o‘zaro ishonchning ortishi munosabatlarning barqarorligini ta’minladi.

Mazkur davrda savdo-iqtisodiy hamkorlik bilan bir qatorda madaniy-gumanitar aloqalar ham izchil rivojlandi. Xususan, ta’lim, san’at, turizm va madaniyat sohalaridagi qo‘shma loyihalar xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va yaqinlikni yanada mustahkamladi. Bu esa ikki davlatning nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy va madaniy integratsiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shuningdek, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlik Markaziy Osiyoda mintaqaviy barqarorlik va hamjihatlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida ham ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar yanada kengayib, yangi yo‘nalishlar hisobiga rivojlanishi kutilmoqda. Umuman olganda, 2019–2026–yillar oralig‘ida O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi diplomatik va madaniy aloqalar samarali hamda barqaror rivojlanganini ko‘rish mumkin.

References

1. O‘zbekiston Respublikasini 2017 – 2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. www.lex.uz.
2. Xalq so‘zi gazetasi, 2021–yil,7–dekabr nashri
3. Xalq so‘zi gazetasi, 2021–yil,1–iyundagi nashri
4. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2023–yil,23–aprel nashri
5. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — Toshkent: O‘zbekiston, 1991.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.